
QUVASOY SHAHAR DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYASI OYABR OYI DAVOMIDA BYUDJET TUSHIMLARI BO`YICHA MA`LUMOT BERDI.

Quvasoy shahar Davlat soliq inspeksiyasi mas'ul xodimlari tomonidan 2022-yil noyabr oyi davomida 768 ta tadbirkorlik sub'ektlari o'rganildi. O'rganishda aniqlangan muammolar 13 ta yo'nalishda (soliq organlariga aloqador masalalar 9 ta, boshqa idora va tashkilotlarga aloqador muammolar 3 ta) belgilab olinib, muammolari mavjud 768 ta tadbirkorlik sub'ektlarining 565 tasiga ko'maklashish lozimligi, 203 tasi esa tadbirkorlik sub'ektlariga ko'mak zarur emasligi aniqlandi.

Bundan soliq organiga aloqador masalalar 540 ta, boshqa idora va tashkilotlarga aloqador masalalar 25 tani tashkil etadi. Bundan tashqari yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritishda, soliq hisobotlarini taqdim etishda va boshqa tashkilotlarga aloqador muammolarini xal etishga amaliy yordamlar berildi.

Shuningdek, 33 ta tadbirkorlik sub'ektlariga soliqqa oid boshqa muammolarini hal etishda ko'maklashildi.

G'.Murbayev, Quvasoy shahar davlat soliq inspeksiyasi sho'ba boshlig'i.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-12-19 14:56:11